



**Husni Xulq**

**Высокая Мораль**

**High Morals**

***Jumaboyeva Xulkar***

*O'zbekiston Xalqaro Islomshunoslik Akademiyasi*

*Islomshunoslik yo'nalishi 3-kurs talabasi*

+998881143025

***Annotasiya.** Ushbu maqolada insonlar uchun eng zaruriy xislatlardan biri – go'zal xulqning jamiyatda qanchalar katta ahamiyatga ega ekanligi ochib berilgan. Shu asosda, yetuk axloq sohibi va undagi o'rnak olinadigan jihatlari eslab o'tilgan. Natijada husni xulq insonni barcha maxluqotlar ichida yuqori darajaga olib chiqadigan fazilat ekanligi o'z isbotini topan.*

***Kalit so'zlar:** Husni xulq, komil inson, fazilat, ne'mat, qadriyat, shukr.*

***Аннотация:** В данной статье раскрывается важность доброго характера в обществе, одного из важнейших качеств человека. В этой связи рассматривается человек со зрелым характером и его образцовые черты. В результате доказывается, что добродетель – это добродетель, возвышающая человека над всеми живыми существами.*

***Ключевые слова:** Хороший характер, совершенный человек, добродетель, благословение, ценность, благодарность*

***Annotation:** This article reveals the importance of good character in society, one of the most essential qualities for humans. On this basis, the person with a mature character and the exemplary aspects of him are mentioned. As a result, it has been proven that good character is a virtue that elevates man to a higher level among all creatures.*

***Keywords:** Good character, perfect person, virtue, blessing, value, gratitude.*



Insonning husni xulqi ya'ni yaxshi axloqiy fazilatlarini yaratgan tomonidan berilgan eng oliy ne'matlardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, inson doimo shu kabi ulug' mukofatlarni shukrini ado etib yashashi lozim. Xususan, hozirgi kunda, Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan barcha islohotlar va boshqa shu kabi masalalarning ham, mavzu bilan bog'liq bo'lgan ahamiyatli tomonlari juda ko'p. Husni-xulq atamasining lug'aviy va istilohiy jihatdan juda ko'p ta'riflari mavjud. Shularni turli xil shakllarini ko'rib chiqamiz. Lug'aviy jihatdan o'zbek tilidagi "Husni-xulq" atamasi ikki so'zdan iborat:

"Husn" (ko'rk, chiroy, go'zallik, latofat, yaxshi sifat, xislat):

1. yoqimli, o'ziga tortuvchi tus, ko'rinish; chiroy, ko'rk (inson yuz tuzilishi, ifodasi, rangi va sh.k. ga nisbatan);
2. yoqimli ko'rinish; chiroy;
3. chiroy bo'luvchi narsa, chiroy timsoli, chiroy.

"Xulq" (fe'l-atvor, tabiat; kayfiyat; g'azab):

1. Kishining muamola va xususiyatlar majmuyi, fe'l, xarakter.
2. Kishiga odat bo'lib qolgan, takrorlanib turadigan xatti-xarakat; odat, qiliq.

Husni xulq eng yaxshi sifatlar, eng yaxshi xulqlar, fazilatlarga egalik<sup>1</sup> so'zlarining birikmalaridan tashkil topgan bo'lib, turli xil ma'nolarga boy bo'lgan atama hisoblanar ekan. Bu atama insonning chiroyli axloqiy fazilatlarini, yaxshi xulqi va odob-axloqining go'zalligi ma'nosida ham ishlatiladi. Husni xulq, ya'ni yaxshi odat va fazilatlar, shaxsning ijtimoiy munosabatlaridagi samimiyligi, halolligi, mehribonligi, hurmat va adolatga asoslangan xatti-harakatlarini anglatadi. Husni xulq shaxsning ijtimoiy moslashuvi, ijobiy munosabatlarni shakllantirishiga yordam beradigan xususiyatlar sifatida qaraladi. Jamiyatda axloqiy me'yorlar ijtimoiy tartibni saqlashda asosiy rol o'ynaydi. Husni xulqning yuqori darajasi jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim omilidir. Halollik, sabr-toqat, mardlik, fidoyilik, mehribonlik kabi fazilatlar islomda asosiy ahamiyatga ega.

<sup>1</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi A.Madvaliyev D.Xudayberganova tahriri. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 450-89.



Diniy ta'limotlarda husni xulq nafaqat inson uchun, balki ijtimoiy hamjihatlik uchun ham muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda turli xalqaro tashkilotlar ya'ni BMT, UNESCO, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti kabi muassasalarda inson huquqlari, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy barqarorlik masalalari muhokama qilinmoqda. Globalizatsiya davrida turli millatlar, dinlar, madaniyatlar o'rtasidagi muloqotda umumiy axloqiy tamoyillar asosida tushunish va hamkorlik mustahkamlanmoqda. Insonning hurmati, erkinligi va huquqlarini ta'minlashda husni xulq asosiy vositadir. Yaxshi axloq jamiyatlarda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Insonning husni xulqi – bu shaxsning ham o'z-o'zini tarbiyalash, ham jamiyatga foydali bo'lishining muhim sharti hisoblanadi. Ilmiy nuqtai nazardan bu shaxsning psixologik va sotsiologik jihatdan sog'lom rivojlanishi uchun zarur bo'lgan fazilatlar majmuasidir.

Diniy nuqtai nazardan, husni xulq insonni Allohga yaqinlashtiradigan, uning qadrini oshiradigan oliy fazilatdir. Go'zal xulqli bo'lish – payg'ambarlar, siddiqlar va solih zotlarning xulqlaridan bo'lib, bu bilan kishi buyuk maqom va martabalarga erishadi. Barcha go'zal xulqlar Muhammad (s.a.v.)da mukammal va benuqson holda o'z aksini topgan. Bu haqida Alloh taolo U Zotni maqtab bunday degan: “Va Albatta, sen ulkan xulqdasan! (Qalam: 4). Haqiqatan, Nabiy (s.a.v.) birinchi darajadagi komil inson va barcha yaxshi xulqlarni o'zlarida jamlagan zot ekanlariga aslo shubha yo'q”<sup>2</sup>. Bu oyati karima Payg'ambarimiz (s.a.v.) uchun katta bahodir. Avvalo, o'tgan oyatda Alloh taolo u zotga “Robbing” deb O'z ismi sharifini qo'shib xitob qilgan edi. Endi esa u zotning xuqlarini ulug'lik bilan sifatlamoqda. Oisha (r.a.)dan u zotning xulqlari haqida so'rashganda “Xulqlari Qur'on edi”, deb javob bergan. Ya'ni, Muhammad (s.a.v.) Qur'ondagi oliy xulqlar bilan xulqlanganlar. Ul zot (s.a.v) Qur'ondagi barcha yaxshi odob-axloqni o'zlariga singdirganlar. Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning o'zlari “Men yaxshi xulqlarni batamom qilish uchun yuborilganman”, deganlar. Boshqa bir hadislarida esa: “Kishi yaxshi xulqi bilan kunduzi ro'za tutib, kechasini namoz o'qib o'tkazadiganlar darajasiga yetadi” deganlar. Umuman, odob,

<sup>2</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsir Hilol. Toshkent: Hilol-nashr, 2023. – B. 225.



axloq, yaxshi xulqga Islomda katta e'tibor berilgan. Mazkur oyat ham shulardan biridir. "Va albatta, siz ulkan xulqdasiz", degan xitob bilan Alloh taolo O'zining mahbub payg'ambarining naqadar chiroyli axloq egasi ekanliklarini ta'kidlamogda. Bu oyat tafsirini sharhlab imom Ahmad ibn Hanbal shunday rivoyat qiladilar: Oisha (r.a): "Rasululloh (s.a.v) hech qachon na qo'l ostidagi xodimni va na ayollarini urmaganlar. Ikki ishdan birini tanlaydigan bo'lsalar, gunoh bo'lmasa albatta osonini tanlar edilar. Agar gunoh ish bo'lsa undan uzoqda bo'lar edilar. O'zlari uchun hech qachon intiqom (o'ch) olmaganlar. Agar, Alloh harom qilgan narsalar sodir qilinsagina Alloh uchun intiqom olganlar", deganlar. Xullas, Nabiy (s.a.v) xulqlari haqida har qancha gapirilsa oz. Mazkur oyatning o'zi hamma narsadan ustundir. Hamda, bu maqtovlar, doimo amalda, o'z isbotini topib kelgan.

Muhammad (s.a.v) hadislarda ham husni xulqning maqtalgan maqomlari aytib o'tadilar. Bu haqida, Abu Dardo (r.a)dan rivoyat qilingan hadisda: "Nabiy (s.a.v): "Taroziida husni xulqdan ko'ra og'irroq narsa yo'q", deganlar".

Abu Hurayra (r.a)dan rivoyat qilingan hadisda: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Albatta, men solih axloqlarni batamom qilish uchun yuborilganman, deganlar"<sup>3</sup>.

Hazrati shayx Abu Muhammad Jaririy (q.s.) xilvat yerda bo'lsa ham oyoqlarini uzatmasdilar, "Husnu adab hazrati Haq huzurida ko'p yaxshidir", der edilar. Hazrati shayx Ali Bin Sahl esa "Adab – istamoq va qidirmoq bilandir. Jannat ham shundoqdir", deganlar. Abu Usmon ta'birlari bilan aytganda, "Go'zal xulq Alloh taolodan roziliqdir", Kishiga yaxshi xulq zarurligini, xulq aqlning tashqi surati ekanini hamma biladi<sup>4</sup>.

Xalqaro miqyosda esa, yaxshi axloq ijtimoiy barqarorlik, inson huquqlarining ta'minlanishi va tinchlikni saqlashda asosiy omildir.

Shu o'rinda bir narsani eslatib o'tmoqchiman. Bugungi kunda bizning konstitutsiyamizda ham axloq-xulq muhim ahamiyat kasb etadi hamda buni ustuvor

<sup>3</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.Odoblar xazinasi.Toshkent: Hilol-nashr, 2023. – B. 472

<sup>4</sup> Tohir Malik. Odamiylik Mulki (Axloq kitobi).Toshkent. Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2012. – B. 430



yo‘nalish sifatida qomusimizning asl vazifasi bo‘lib, hozirga qadar qonun-qoidalarga suyangan holda tartib bilan to‘g‘ri islohotlar qo‘llanilib kelmoqda. Chunki husni xulq axloq-odob, Islom dining muqaddas kitobi Qur‘onning uchdan bir qismini tashkil qiladi. Demak husni xulq insonlarni birdamlik muomala 2023 “Birgalikda yaxshiroq: tinchlik, taraqqiyot va inson huquqlari uchun 80 yil va undan ko‘proq” shiori ostida o‘tkazilgan Nyu Yorkda bo‘lib o‘tgan BMT Bosh Assambleyasining minbaridagi ilk nutqlarida quyidagilarni ta’kidlab o‘tdilar:

“Ertangi kunimiz, dunyoning taqdiri va farovonligi o‘zida kelayotgan yosh avlod qo‘lida. Yoshlarimizning qalbi va ongiga tinchlik, gumanizm va do‘stlik, o‘zaro ishonch va hurmat kabi olijanob g‘oyalarni singdirish dolzarb vazifamizdir. Yangi O‘zbekiston barcha davlatlar bilan o‘zaro hamjihatlik, ochiq muloqot va yaqin sheriklik tarafdoridir. Biz xalqlar, madaniyatlar va sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlash, umumbashariy maqsadlarni ro‘yobga chiqarish yo‘lida o‘z hissamizni qo‘shishga doim tayyormiz”<sup>5</sup>. Bu esa husni xulqning amaliy ko‘rinishlaridan biridir. Shunday qilib, husni xulq – insoniyatning doimiy qadriyatidir va uni rivojlantirishga barcha jamiyatlar va har bir shaxs o‘z hissasini qo‘shishi lozim.

Komil inson – bir ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi Mutlaq ruhga tutash, fayzu karomatdan serob, siyratu siyrati saranjom, qalbi ezgu tuyg‘ularga limmo-lim pokiza zot, Navoiy tili bilan aytganda:

*Foniyvash eki, ham so‘zidur pok, ham o‘zi,*

*Xush davlat ul kishn g‘aki, tushgay aning ko‘zi*<sup>6</sup>.

Abdulloh ibn Muborak: “Ochiq yuzlilik, kimgadur aziyat berishdan tiyilishlik va yaxshilik yo‘lida borini sarflashlik”, deganlar. Husni xulq, ya‘ni go‘zal xulq – o‘zaro munosabatda o‘ylab, chiroyli muomala qilish qoidalarini o‘zida mujassam etadi. “Qanday bo‘lsang shunday ko‘rin, qanday ko‘rinsang – shunday bo‘l!” Mazkur shior har bir xonadon peshtoqiga yozib qo‘yilgani ma‘quldir. Chunki muayyan sifatlarga ega bo‘lgan inson o‘zini o‘sha darajaga muvofiq tutadi, doim

<sup>5</sup> <https://president.uz/oz/lists/view/8525> [Murojaat sanasi: 20.09.2025].

<sup>6</sup> Tasavvuf yoki komil inson axloqi. Najmiddin Komilov. Yozuvchi nashriyoti. Toshkent: – B. 143.



chiroyli axloq bilan harakat qilishga odatlanadi, ziddiyat va kelishmovchiliklarga o‘rin qoldirmaydi. Ijtimoiy munosabatlarda husni xulq muhim o‘rin tutar ekan. Demak, kelajak avlodni ilk davrlardan boshlab go‘zal xulqli qilib tarbiyalash, ular ongi va qalbiga islom dini, boy milliy qadriyatlar asosida muomala madaniyatini chuqur singdirish lozimdir. Husni xulq, komil insonni tarbiyalash masalalari barcha zamonlarda o‘ta dolzarb bo‘lib, ulug‘ alloma va mutafakkirlar ma‘naviy merosining mazmun-mohiyatini tashkil etgan. Ular doimo har bir ishga insoniylik jihatidan yondashishgan. Barcha insonlarning maqomiga qarab, javob bergan. Inson hayotda yashar ekan, bu dunyoga yuborilganidan bir maqsad ifodalanadi. Ya‘ni uning ustida bajarishi kerak bo‘lgan burch-vazifa bordir. Bu juda katta mas‘uliyat, intizom, davomiylik talab qiladi. Mana shu mas‘uliyatni o‘zidan soqit qilmay, balki uni oxiriga yetkazishi hamda go‘zal xulq ila yakunlashi lozim. Negaki, inson biladi bu burch unga berilganini va uddalay olishini. Bu yo‘lda esa tarbiya va muhit natijasida orttirilgan tajriba har bir insonga birlamchi omil bo‘ladi. Husni xulqni shakllantirgan go‘zal tarbiya va munosib muhit asosiy mezon hisoblanadi. Chunki yosh avlod ulg‘ayib borishida juda ahamiyatlidir. Sababi “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” va “Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqadi” kabi hikmatga boy o‘zbek maqollari hozir kunga qadar davom etib kelayotgani bejiz emas. To‘g‘ri inson unutuluvchi va bilib-bilmasdan xatoga yo‘l qo‘yadigan mavjudotdir. Lekin mana shu oqil mavjudot husni xulq bilan nutq ne‘matidan to‘g‘ri foydalanib, keraklicha amal qilsa va boshqa odamlarni ham, o‘zi kabi Allohni bandasi sifatida bilsa, hamda egasiga qarab muomala qilinsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shunday ekan, xalq uchun ham, jamiyat uchun ham, har qanday davlat uchun ham, o‘zini har bir ishda isloh qilib, husni xulqni egallagan inson tasavvur qilib bo‘lmas eng oliy maqomni belgilab beradi. Bunday insonlar o‘tgan ajdodlarining merosini hamda juda keng imkoniyatlarni taqdim etayotgan davlat yurtboshining yo‘lini davom ettirishlari kutilmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:



1. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. Najmiddin Komilov. Toshkent: Yozuvchi nashriyoti, 1996 – 267 b.
2. Tohir Malik. Odamiylik Mulki (Axloq kitobi).Toshkent. Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2012. – 933 b.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi A.Madvaliyev va D.Xudayberganova tahriri. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 1035-862 b.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsir Hilol. Toshkent: Hilol-nashr, 2023. – 605 b.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.Odoblar xazinasi.Toshkent: Hilol-nashr, 2023. – 520 b.
6. <https://president.uz/oz/lists/view/8525> [Murojaat sanasi:20.09.2025].